

TALABALARDA O'QISH KOMPETENSIYALARINI BADIY MATNLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI VA LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

X.B.Tursunov

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
+998937040874 tursunovhb@rambler.ru*

Annotasiya: Ushbu maqola zamonaviy ta'lim tizimida o'qish kompetensiyalari tushunchasi va ularning tarkibiy qismlari haqida ma'lumolart beriladi. O'qish faqat matnni ovoz chiqarib o'qish emas, balki axborotlarni idrok qilish, tahlil qilish, baholash hamda yangi bilimlarni qurish vositasi sifatida qaraladi. Shu jihatdan o'qish kompetensiyalari — bu faqat o'qish qobiliyati emas, balki axborotli muhitda samarali foydalanish, tanqidiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatidir. Shu bois badiiy matnlar chet tilni o'qitish jarayonida talaba uchun haqiqiy til muhitini yaratishda, madaniy kontekstni anglashda va fikrlash doirasini kengaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: o'qish kompetensiyalari, tanqidiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, badiiy adabiyot, tanqidiy o'qish kompetensiyasi, refleksiya va qo'llash kompetensiyasi, differensial (individuallashtirilgan) yondashuv

МЕТОДИКА И ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ

*Турсунов Хусанбой Бургutowич
доцент Наманганского государственного
института иностранных языков, имени Исаак Хан Ибрат,
доктор педагогических наук (PhD)
tel :+998937040874 e.mail: tursunovhb@rambler.ru*

Аннотация: В данной статье в системе современного образования рассматривается понятие читательских компетенций и их структурные компоненты. Чтение понимается не только как процесс озвучивания текста, но и как средство восприятия информации, её анализа, оценки и конструирования новых знаний. В этом контексте читательские компетенции — это не просто способность читать, а умение эффективно использовать информацию в информационной среде, мыслить критически, делать логические выводы и применять полученные знания на практике. В связи с этим художественные тексты в процессе обучения иностранному языку могут служить важным средством создания для студентов аутентичной языковой среды, понимания культурного контекста и расширения их кругозора.

Ключевые слова: читательские компетенции, критическое мышление, логическое заключение (или: умение делать логические выводы), художественная литература, компетенция критического чтения, компетенция рефлексии и применения, дифференцированный (индивидуализированный) подход.

METHODOLOGY AND LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS FOR IMPROVING STUDENTS' READING COMPETENCIES BASED ON LITERARY TEXTS

Tursunov Khusanboy Burgutovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Namangan State Institute of foreign Languages
tel :+998937040874 e.mail: tursunovhb@rambler.ru

Annotation: *This article examines the concept of reading competencies and their structural components within the modern education system. Reading is understood not only as the process of vocalizing a text, but also as a means of perceiving information, analyzing and evaluating it, and constructing new knowledge. In this context, reading competencies are not merely the ability to read, but the capacity to effectively use information in an information-rich environment, think critically, draw logical conclusions, and apply acquired knowledge in practice. Therefore, in the process of foreign language teaching, literary texts can serve as an important tool for creating an authentic language environment for students, understanding the cultural context, and broadening their intellectual horizons.*

Keywords: *reading competencies, critical thinking, logical reasoning (or: drawing logical conclusions), fiction / literary literature, critical reading competence, reflection and application competence, differentiated (individualized) approach*

KIRISH

Badiiy matnlar chet tillarni o'qitish va o'rganish tarixida turli bosqichlarda keskin o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Ular uzoq vaqt mobaynida muqaddas, markaziy o'quv material sifatida qabul qilingan bo'lsa, keyingi davrlarda biroz yakkalanib qoldi. XIX asrning oxirigacha amal qilib kelgan an'anaviy ta'lim metodida, badiiy matnlar chet tilni o'qitishda samarali didaktik vosita sifatida qaralgan va lingvistik hamda madaniy bilimlarni uzatishda asosiy manba bo'lgan.

Chet tilni o'rganish jarayoni ko'pchilik uchun dastlab qo'rqinchli yoki murakkab tuyulishi mumkin, biroq aslida bu — shaxsning yangi madaniyat, yangi dunyo va yangi tafakkur shakllarini kashf etishiga imkon beradigan ajoyib intellektual sayohatdir. Badiiy adabiyot esa ana shu yangi dunyoning ajralmas qismi sifatida

talabaga o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bois badiiy matnlar chet tilni o'qitish jarayonida talaba uchun haqiqiy til muhitini yaratishda, madaniy kontekstni anglashda va fikrlash doirasini kengaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qish faqat matnni ovoz chiqarib o'qish emas, balki axborotlarni idrok qilish, tahlil qilish, baholash hamda yangi bilimlarni qurish vositasi sifatida qaraladi. Shu jihatdan o'qish kompetensiyalari — bu faqat o'qish qobiliyati emas, balki axborotli muhitda samarali foydalanish, tanqidiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fransuz faylasufi Rene Dekart ta'kidlaganidek: *“Yaxshi kitoblarning barchasini o'qish — bu o'tgan asrlardagi eng ulug' insonlar bilan suhbatlashish kabidir, zero ular ushbu asarlarning mualliflaridir”*.

Jon Raskin (John Ruskin, 1819–1900) — XIX asr ingliz san'atshunosi, yozuvchi, faylasufi, ijtimoiy tanqidchi *“o'qish — bu bizning atrofimizdagi ancha dono va qiziqarli insonlar bilan suhbatlashishdir”* degan fikri o'qish jarayonining chuqur didaktik va tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi.

Taniqli adabiyotshunos olim Safo Matjonov fikriga ko'ra, *“Badiiy asarni o'qish o'zicha hali hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o'qish va o'qiganni qanday tushunishdir. Demak, kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki uni tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Badiiy asarni o'qiganda sizdagi bu “loqaydlik” faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodliklarga chulg'anadi - ruhlanasiz, g'azablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki u qalb dardi tufayli yaratilgan, dard esa suhbatdoshni befarq qoldirmaydi”*.

Badiiy matnlar til o'rganuvchiga leksika va grammatikani “o'rgatmaydi”, balki ularni tabiiy ravishda “yuqtiradi”.

Badiiy matnni o'qish haqida fransuz olimi, faylasuf, yozuvchi va dramaturg Jean Paul Sartre o'zining mashhur *“Qu'est-ce que la littérature?”* (“Adabiyot nima?”) asarida shunday deydi: *“Badiiy asar — bu faqat harakatda mavjud bo'ladigan g'ayrioddiy charxpalakdir. Uni mavjud qilish uchun o'qish deb ataladigan aniq*

harakat sodir bo'lishi kerak va bu mavjudlik o'qish davom etgan vaqtgacha davom etadi. Aks holda, u qog'ozdagi qora izlardan boshqa narsa emas."

Badiiy matnlar – bu san'at asari sifatida yozilgan va badiiy uslubda ifodalangan matnlar bo'lib, ular talabalarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- 1) Til madaniyatini oshirish: Badiiy matnlar talabalarga yangi so'zlar, iboralar va nutq uslublarini o'rganish imkonini beradi.
- 2) Emotsional dunyoni boyitish: Badiiy asarlar orqali talabalar turli his-tuyg'ularni seza olish, ularga munosabat bildirish ko'nikmalarini egallaydilar.
- 3) Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish: Badiiy matnlar murakkab mavzular, falsafiy fikrlar va ijtimoiy muammolar haqida o'ylashga undaydi.
- 4) Ijodiy tasavvurni kengaytirish : Badiiy asarlar talabalarning xayollarini boyitadi va ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'qish kompetensiyalari tushunchasi— bu matn bilan samarali ishlashga yordam beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Odatda ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Matnni tushunish kompetensiyasi: Matn mazmunini to'g'ri anglash, asosiy g'oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, matndan xulosa chiqarish.
2. Tahlil qilish kompetensiyasi: Matn tuzilishini (kirish, asosiy qism, xulosa) aniqlash, muallifning maqsadi va nuqtayi nazarini tushunish, dalillarni baholash.
3. Tanqidiy o'qish kompetensiyasi: Axborotning ishonchliligini tekshirish, fakt va fikrni farqlash, matnga shaxsiy munosabat bildirish.
4. Axborotni izlash va tanlash kompetensiyasi: Kerakli ma'lumotni tez topish, (skimming- lecture globale, scanning- lecture sélective yoki repérage d'informations), muhim va nomuhim axborotni ajratish.
5. Lug'aviy va til kompetensiyasi: So'z boyligini oshirish, notanish so'zlarning ma'nosini kontekstdan aniqlash, til birliklarini to'g'ri tushunish.
6. Refleksiya va qo'llash kompetensiyasi: O'qilgan matn asosida fikr bildirish, matndan olingan bilimni amaliyotda qo'llash, matn bo'yicha savollarga javob berish yoki yozma ish qilish.

Matnni tushunish muammosi ko'pincha o'qish kompetensiyalarini egallashda qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalarda namoyon bo'ladi. Bunday hollarda o'qish jarayoni ular uchun shakl va mazmun jihatidan murakkab bo'lib qoladi. Shu sababli, talaba yangi bilimlarni o'zlashtirish maqsadida madaniy muhitga faol qo'shilishi va unda ishtirok etishi zarur.

Ingliz adabiyotshunos olim Thomas R. Davenport ta'kidlaganidek: *"Har bir o'qish parchasidan keyin beriladigan savollar qiyinchilik darajasiga ko'ra tartiblangan emasligini alohida qayd etish muhimdir. Bu holat, faqatgina jumlani to'ldirishga oid bo'limda istisno bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, agar siz murakkabroq tushunish savoliga duch kelsangiz, to'xtab qolmasligingiz kerak, chunki undan keyingi savol siz kutganingizdan ancha osonroq bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Umuman olganda, savollar matnning mantiqiy rivojlanishiga muvofiq tuziladi"*. Davenportning ta'kidlashicha, o'qish matnidan keyin beriladigan savollar har doim ham qiyinchilik darajasi bo'yicha ketma-ket joylashtirilmagan bo'ladi. Bu metodik jihatdan muhim, chunki:

1. Qiyinchilik darajasining ketma-ket emasligi talabaga motivatsiyani yo'qotmaslik imkonini beradi. Murakkab savoldan keyin oddiyroq savol uchrashi talabani jarayonda faol ushlab qoladi.

2. Talabaning individual strategiyalarini rivojlantiradi: u savolni qiyin yoki osonligiga qarab emas, balki matndan ma'no chiqarish va uni tushunish asosida yechishga odatlanadi.

3. O'qish kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantiradi: savollar matnning mantiqiy rivojiga asoslanganligi sababli, talaba matnni qayta ko'rib chiqishga, undagi g'oyalarni mantiqan bog'lashga o'rgatiladi.

4. Metodik ahamiyati: o'qishdan keyingi savollar faqat bilimni tekshirish vositasi emas, balki talabani tahlil qilishga, xulosa chiqarishga, ma'no izlashga, va matnga nisbatan shaxsiy pozitsiyasini bildirishga yo'naltiradi.

5. Amaliy natija: bu yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash va inferensiya (xulosa chiqarish) ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Davenportning ushbu fikri chet tilni o'rgatishda o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim metodik ko'rsatmadir. O'qituvchi

savollarni faqat qiyinlik darajasiga qarab emas, balki matnning mantiqiy oqimi va talaba fikrlash jarayonini qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan tashkil etishi zarur.

NATIJALAR TAHLILI

Amerikalik lingvist olim Richard Allingtonning fikriga ko'ra, talabalarni qiziqtiruvchi va yoqimli materiallarni tanlash muhimdir. Badiiy matnlar, agar talabaning yoshiga, darajasiga va qiziqtiruvchi sohalarga mos kelganda, ularning o'qish qobiliyatlarini yaxshilaydi. O'qituvchilar badiiy matnlar orqali talabalarni faqat o'qishga emas, balki ijodiy fikrlashga, tahlillashga va yangiliklarni topishga yordam bera oladi. Bu esa ularning o'qish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Har bir talaba o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu sababli, o'qituvchilar badiiy matnlar orqali har bir talabani individual ravishda ko'rib chiqishi va ularning o'qish qobiliyatlarini yaxshilash uchun moslashtirilgan dasturlar yaratishi kerak.

O'qituvchilar badiiy matnlardan foydalanib nafaqat talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishlari, balki ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish va yangilikka intilishlarini qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Bunday yondashuv talabalarning o'qish kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantiradi.

Har bir talaba o'ziga xos psixologik, ijtimoiy va akademik xususiyatlarga ega. Shu boisdan, o'qituvchilar badiiy matnlarni tanlashda va ulardan foydalanishda differensial (individuallashtirilgan) yondashuvni qo'llashlari, har bir talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqishlari zarur. Bu esa talabalarni yanada faol, mustaqil va motivatsiyalangan talabalarga aylantirishga xizmat qiladi.

Etuk lingvist olim, prosessor Stiven Krashen quyidagi o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish usullari ishlab chiqdi. Talabalar o'zlari uchun qiziqarli va engil matnlar tanlash lozim. Shuningdek, bu matnlar talabalarning darajasiga mos kelishi ham muhimdir. Bu usul talabalarda o'qish kompetensiyalarini yaxshilaydi. Talabalarga muntazam ravishda tushunarli va samarali matnlar taqdim etish orqali ularning o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Muntazam ravishda o'qish jarayoni talabalarning o'qish qobiliyatlarini kuchaytiradi.

O'qish — bu yozma axborotni qabul qilish holatidir. Bu bilimlarni egallash va dunyoni anglash uchun afzal qilingan vositalardan biridir. Miloddan avvalgi 3300-yilda yozuv ixtiro qilinganidan beri o'qish amali inson hayotidagi eng foydali faoliyatlardan biri sifatida o'z o'rnini egallagan. O'qish kompetensiyalari – bu talabaning matnni tushunish, uni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash asosida xulosa chiqarish, o'z fikrini asoslab ifodalash qobiliyatidir.

Badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida quyidagi psixologik va lingvodidaktik jihatlar alohida ahamiyatga ega.

1. Badiiy matnlarni psixologik jihatlari: Talabalarning psixologik rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi, ularning tasavvuri, his-tuyg'ulari va empatiya qobiliyatlarini rag'batlantiradi. Quyidagi ba'zi muhim jihatlar mavjud:

a) Emotsional rivojlanish: Badiiy matnlar talabalarga turli xil his-tuyg'ularni o'rganish imkonini beradi: sevgi, qayg'u, quvonch, qo'rquv, g'azab va hokazo. Personajlarga o'zini bog'lash yoki ularning tajribalari haqida o'ylash orqali talabalar o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunishga o'rganadilar. Masalan, lirika she'ri yoki dramatik sahna talabalarga ilgari ifodalab bo'lmagan his-tuyg'ularini bayon etishda yordam berishi mumkin.

b) Tasavvur va ijodkorlikni rag'batlantirish: Badiiy matnlar talabalarni ijodiy va mustaqil fikrlashga chorlab, ularning tasavvur doirasini kengaytiradi, xayoliy va ramziy dunyolarni ko'z oldiga keltirishga, voqea-hodisalarga chuqurroq emotsional va estetik munosabat bildirishga undaydi. Ular orqali talaba nafaqat matn mazmunini anglaydi, balki o'z ichki kechinmalari, hayotiy tajribasi va shaxsiy qarashlari asosida yangi ma'nolar yaratadi. Metaforalardan, ramzlar va she'riy tasvirlardan foydalanish ularning tasavvurini rag'batlantiradi. Masalan, fantastik ertak yoki ilmiy-fantastik asar talabalarni o'z hikoyalarini yaratishga yoki atrof-muhitni boshqacha talqin qilishga undashi mumkin.

c) Empatiya rivojlanishi: Adabiyot talabalarni turli nuqtai nazarlarga va murakkab insoniy holatlarga tanishtiradi. Personajlar ichki yoki tashqi nizolarga duch kelgan asarlarni o'qish orqali talabalar boshqalarning o'rnida bo'lishni va ularning motivatsiyalarini tushunishni o'rganadilar. Masalan, Viktor Gyugoning "Xo'rlanganlar" romanini o'qish talabalarni ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi ongini

oshirib, chetga surilgan odamlar haqida *empatiya* (bu boshqa shaxsning his-tuyg'ularini, fikrlarini va holatini tushunish va ularga hissiy jihatdan javob berish qobiliyatidir) tuyg'usini kuchaytirishi mumkin.

d) Emosional zo'riqishni kamaytirish va ruhiy farovonlik: Badiiy asarlarni o'qish tinchlantiruvchi va sokinlashtiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu kundalik tashvishlardan vaqtinchalik qochishga yordam beradi va talabalarga umumiy tajribalar bilan bog'lanish imkonini beradi. Masalan, romantik she'rlar yoki tabiat manzaralari tasvirlangan badiiy matnlar ichki tinchlik va huzur tuyg'usini uyg'otishi mumkin.

e) Axloqiy va etuk rivojlanish: Badiiy asarlar ko'pincha axloqiy va falsafiy savollarni keltirib chiqaradi, bu esa talabalarni adolat, haqiqat, erkinlik yoki mas'uliyat kabi tushunchalar haqida o'ylashga undaydi. Bu ularning axloqiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Masalan, *Albert Camyuning — "L'Étranger"* (Begona) asari talabalarga insoniy harakatlarning oqibatlarini, yaxshilik va yomonlik tabiati haqida o'ylashga undaydi.

2. Lingvodidaktik jihatlar: Til va didaktik nuqtai nazardan, badiiy asarlar talabalarning til kompetensiyalarini boyitishda qimmatli vositalardir. Ular grammatikani, leksikani, sintaksisni va tilni umumiy tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

a) Leksik boylikni oshirish : Badiiy matnlar ko'pincha boy va turli xil leksikani o'z ichiga oladi, jumladan, idiomatik ifodalar, metaforalar va stilistik vositalar. Bu talabalarga o'z leksikonlarini kengaytirishga va so'zlarni turli kontekstlarda qo'llashni o'rganishga yordam beradi. Masalan, klassik she'riyat eski yoki stilistik jihatdan rivojlangan atamalarni tanishtirish uchun ayniqsa foydalidir.

b) Grammatik va sintaktik tushuncha: Badiiy asarlar ko'pincha murakkab grammatik strukturalar va ishlab chiqilgan jummalarni taqdim etadi. Ushbu matnlar bilan ishlash orqali talabalar grammatik qoidalar va sintaksisni yaxshiroq tushunadilar. Masalan, qadimgi yoki badiiy matnlarni o'qish talabalarga murakkab fe'l shakllari yoki teskari jummalarni o'zlashtirishga yordam berishi mumkin.

c) Tanqidiy tahlil va talqin: Badiiy asarlar bilan ishlash talabalarga matnni ma'naviy va aniq xabarlarini tahlil qilish va talqin qilishni o'rgatadi. Ular asosiy

mavzularni, ramzlarni va muallifning niyatlarini aniqlashni o'rganadilar. Masalan, she'rni o'rganishda talabalar tasviriy uslublarni ajratib, ularning matnni umumiy mazmuniga qanday hissa qo'shishini tushuntirishga qaratiladi.

d) Kommunikativ ko'nilmalarni yaxshilash: Badiiy matnlar insoniy muloqotning turli shakllarini, jumladan, suhbatlar, monologlar va tasviriy hikoyalarni o'z ichiga oladi. Bu talabalarga og'zaki va yozma ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, drama asarlarni o'rganish suhbatni olib borish qobiliyatini kuchaytirish va hissiyotlarni dialog orqali ifodalashni o'rgatishi mumkin.

e) Kognitiv va madaniy rivojlanish: Badiiy asarlar talabalarga turli madaniyatlar, tarixiy davrlar va ijtimoiy nuqtai nazarlar bilan tanishish imkonini beradi. Bu ularning dunyoqarashini boyitadi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, turli badiiy an'analarga (fransuz, afrikalik, osiyolik va boshqalar) oid asarlarni o'qish talabalarga madaniy va lingvistik xilma-xillikni tushunishga yordam beradi.

XULOSA

Chet til darslarida badiiy asarlar bilan ishlash psixologik va lingvodidaktik jihatdan sezilarli foydalar keltiradi. Psixologik jihatdan bu matnlar talabalarning emotsional rivojlanishini, ijodkorligini va empatiyasini rivojlantiradi. Lingvodidaktik jihatdan ular leksikani boyitadi, grammatik tushunishni yaxshilaydi va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi. Badiiy asarlar ustida ishlash ta'limga kiritish orqali talabalarga mukammal va boy tajriba taqdim etish mumkin. Badiiy asarlar bilan ishlashning psixologik va lingvodidaktik jihatlari talabalarning emotsional, kognitiv va lingvistik rivojlanishiga hissa qo'shadi, shu bilan birga ularning dunyo va tilni tushunishlarini boyitadi.

Badiiy matnlar bilan ishlashning psixologik va lingvodidaktik jihatlari o'quv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnlar talabaga nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki uning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Badiiy adabiyot inson ruhiyatining murakkabligini, insoniy munosabatlarni, hissiyotlarni va turli xil hayotiy tajribalarni aks ettiradi. Shu

sababli, badiiy matnlar bilan ishlash quyidagi psixologik jihatlarni rivojlantirishga yordam beradi:

1. Emotsional intellektni rivojlantirish: Badiiy matnlar talabani turli xil qahramonlarning hissiyotlari bilan tanishtiradi. Talaba matnni o'qish davomida qahramonlarga hamdardlik bildirish, ularning his-tuyg'ularini tushunish va his qilish orqali o'zining emotsional intellektini rivojlantiradi. Emotsional intellekt shaxsning o'z hissiyotlarini va boshqalarning hissiyotlarini tushunish, boshqarish va ifoda eta olish qobiliyatidir. Badiiy matnlar bilan ishlash orqali talaba nafaqat qahramonlarning hissiyotlarini anglashni, balki o'z hissiyotlarini ham tushunishni va nazorat qilishni o'rganadi.
2. Empatiyani kuchaytirish: Badiiy adabiyot turli xil insonlarning hayot tarzini, madaniyatini va qarashlarini aks ettiradi. Talaba matnlar orqali boshqa odamlarning nuqtai nazarini tushunishga, ularga nisbatan empatiya hissini rivojlantirishga o'rganadi.
3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Badiiy matnlar talabadan faqatgina o'qishni emas, balki o'qiganlarini tahlil qilishni, baholashni va tanqidiy fikrlashni talab qiladi. Tanqidiy fikrlash - bu axborotni tahlil qilish, baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida talaba muallifning nima demoqchi ekanligini, matnning yashirin ma'nolarini topishga, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga va o'z fikrini asoslashga o'rganadi. Bu esa uning tanqidiy fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi.
4. Tasavvurni kengaytirish va ijodkorlikni rag'batlantirish: Badiiy adabiyot talabani yangi dunyolar, g'oyalar va tasvirlar bilan tanishtiradi. Talaba matnlarni o'qish davomida o'z tasavvurini ishga soladi, matnda tasvirlangan voqealarni ko'z oldiga keltiradi va shu orqali o'zining tasavvurini kengaytiradi. Bundan tashqari, badiiy matnlar talabani ijodiy fikrlashga, yangi g'oyalar yaratishga va o'z fikrlarini ifoda etishga rag'batlantiradi. Misol uchun, dars jarayonida talabalarga matn asosida o'z hikoyalarni yozish, matnni sahnalashtirish yoki qahramonlar nomidan xat yozish kabi ijodiy topshiriqlar berish mumkin.
5. Shaxsiy o'sish va ma'naviy rivojlanishga yordam berish: Badiiy matnlar inson hayotining turli xil jabhalarini, ahloqiy me'yorlarni va insoniy qadriyatlarni aks

ettiradi. Talaba matnlarni o'qish va tahlil qilish orqali o'zining shaxsiy o'sishi va ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Matnlar talabani o'z-o'zini anglashga, o'z qadriyatlarini aniqlashga va hayotga falsafiy nuqtai nazardan qarashga undaydi.

6. Motivatsiya va qiziqishni oshirish: Badiiy matnlar, ayniqsa talabalarning yoshiga va qiziqishlariga mos ravishda tanlangan bo'lsa, o'quv jarayoniga motivatsiyani va qiziqishni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Qiziqarli hikoyalar, qahramonlar va syujetlar talabani matn bilan faol ishlashga, o'qishga va tilni o'rganishga undaydi. Zerikarli grammatik mashqlardan ko'ra, qiziqarli hikoya asosida til o'rganish talaba uchun ancha motivatsion bo'ladi.

Shunday qilib, badiiy matnlarning lingvodidaktik asoslari integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilganda, talabalarda o'qish kompetensiyalarining ko'p qirrali va tizimli shakllanishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Proust Marcel. Sur la lecture. 1993. Actes Hubert Nyssens Editeur. (P. 27).
 2. John Ruskin, 1819–1900 Sesame and Lilies
 3. Safo Matjon. Kitob o'qishni bilasizmi? T.: O'qituchi. 1993. 26-bet
 4. SARTRE, J.P, (1948), Qu'est-ce que la littérature ? Paris, Gallimard.
 5. Thomas R, Davenport, Mastering the SAT Critical Reading test, 2007. SAT: is a registered trademark of
 6. College Board which was not involved in the production of and does not endorse, this product, Wiley publishing
 7. Inc, (p 62).
- Book details · Print length. 32 pages · Language. English · Publication date. 1 September 1980 · Grade level. 1 - 2 · ISBN-10. 0817213228 · ISBN-13. 978-0817213220.
8. Title, The Power of Reading: Insights from the Research ; Author, Stephen D. Krashen ; Edition, 2, revised ; Publisher, Bloomsbury Academic, 2004.